ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

MAKTABGA TAYYORLOV YOSHIDAGI BOLALARNING NUTQIY O‘ZIGA ISHONCHINI RIVOJLANTIRISHDA SYUJETLI-ROLLI O‘YINLARDAN FOYDALANISH

Muzaffarova Maftuna
Navoiy Davlat Universiteti
Maktabgacha ta’lim kafedrasi
70110201-Ta’lim va tarbiya
nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha ta’lim) mutaxassisligi magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.24041474

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarning nutqiy o‘ziga ishonchini rivojlantirishda syujetli-rolli o‘yinlardan foydalanishning ahamiyati yoritilgan. Bolalarning o‘z fikrini erkin ifodalashi, tengdoshlari va kattalar bilan muloqotga kirishishi, savollarga mustaqil javob berishi hamda nutqiy faolligini oshirishda syujetli-rolli o‘yinlarning o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, turli hayotiy vaziyatlarni o‘yin orqali aks ettirish bolalarda mustaqillik, faollik, ijodkorlik va o‘ziga bo‘lgan ishonchni shakllantirishga xizmat qilishi bayon etilgan. Maktabgacha ta’lim jarayonida ushbu o‘yinlardan maqsadli foydalanish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.
Kalit so’zlar: Syujet-rolli o’yin, maktabgacha yoshdagi bolalar, rol, tarbiyachi, nutq faoliyati, muloqot .

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СЮЖЕТНО-РОЛЕВЫХ ИГР В РАЗВИТИИ РЕЧЕВОЙ УВЕРЕННОСТИ ДЕТЕЙ ПОДГОТОВИТЕЛЬНОГО К ШКОЛЕ ВОЗРАСТА

Аннотация: В данной статье рассматривается значение сюжетно-ролевых игр в развитии речевой уверенности детей подготовительного к школе возраста. Анализируется роль таких игр в формировании умения свободно выражать свои мысли, общаться со сверстниками и взрослыми, самостоятельно отвечать на вопросы и проявлять речевую активность. Особое внимание уделяется тому, как моделирование различных жизненных ситуаций в игровой форме способствует развитию самостоятельности, творческих способностей и уверенности ребёнка в себе. Также представлены рекомендации по целенаправленному использованию сюжетно-ролевых игр в процессе дошкольного образования.
Ключевые слова: Сюжетно-ролевая игра, дети дошкольного возраста, роль, воспитатель, речевая деятельность, общение.

THE USE OF ROLE-PLAYING GAMES IN DEVELOPING SPEECH CONFIDENCE IN PRESCHOOL-AGED CHILDREN

Abstract: This article discusses the importance of role-playing games in developing speech confidence among children of preschool preparatory age. It examines how these games help children

express their thoughts freely, communicate with peers and adults, answer questions independently, and improve their speaking skills. Special attention is given to the role of imaginary and real-life situations in games in developing children's independence, creativity, communication skills, and self-confidence. The article also provides recommendations for using role-playing games effectively in the preschool education process.

Keywords: Plot-role play, preschool children, role, educator, speech activity, communication.

Syujetli-rolli o'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishning eng muhim va samarali usullaridan biridir. O'yin davomida bolalar turli rollar va vaziyatlarni taqlid qiladilar, bu ularga atrofdagi dunyoni yaxshiroq tushunish, muloqot qilish, ijtimoiy ko'nikmalar, ijodiy fikrlash va tasavvurni rivojlantirish imkonini beradi.

Syujetli-rolli o'yinlar tomonidan rag'batlantiriladigan rivojlanishning asosiy jihatlaridan biri bu muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Boshqa bolalar bilan muloqot qilish jarayonida bola o'z fikrlari va his-tuyg'ularini ifodalashni, boshqalarni tinglashni va tushunishni o'rganadi,murosaga kelishni va nizolarni hal qilishni anglaydi. Bularning barchasi atrofimizdagidagi odamlar bilan sog'lom munosabatlarni shakllantirish uchun juda muhimdir[1].

N.M.Aksarinaning fikricha, o`yin faoliyati o`zidan-o`zi vujudga kelmaydi, buning uchun quyida uchta vosita bo`lishi kerak:

1) bolaning ongida uni qurshab turgan voqelik to`g`risidagi xilma-xil taasurotlar tarkib topishi;

2) har xil ko`rinishdagi o`yinchoqlar va tarbiyaviy ta`sir vositalarining muhayyoligi;

3) bolaning kattalar bilan tez-tez muomala va muloqotga kirishuvi[2].

Lev Vygotskiy – bolalar o‘yinlarini rivojlanish uchun muhim vosita deb hisoblagan va o‘yinlarni “qulay zona” deb atagan. Uning nazariyasiga ko‘ra, o‘yinlar bolalarning ijtimoiy muloqot, o‘zini anglash, shaxsiy tajribani boyitish kabi ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Syujetli-rolli o'yin - maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy o'yin turlaridir. Syujetli-rolli o'yin o'z xususiyatiga ko'ra aks ettiruvchi faoliyatdir. Tevarak-atrofdagi kattalar va tengdoshlarining hayoti va faoliyati bu o'yin mazmuniga manba bo'lib xizmat qiladi. Bolalarning tevarak-atrofdagi hayotdan, tengdoshlari, kattalar faoliyatidan olgan taassurotlari ijodiy o'yinda qayta ishlanadi, to'ldiriladi, sifat jihatidan o'zgartiriladi. Bolalarning bunday o'yinlari tevarak-atrofdagi borliqni bilishning amaliy shaklidir. Bolalar o'yininmg o'ziga xos tomoni unda tasvirlovchi vaziyatlarning mavjudligidir. Tasvirlovchi vaziyat bolalarga o'yin jarayonida yuklangan rol va o'yin syujetidan tashkil topadi va har xil buyumlardan foydalanishni ham o'z ichiga oladi[3].

---

[1] Meyliyevna B. M. Thedevelopment of cognitive interests in older Preschoolers in the process of getting acquainted With nature //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. –2022. –T. 12. –No. 4. –C. 121-128

[2] Ibrokhimjonovna T. N. PERSONAL EDUCATION AS A MAIN BASIS OF SOCIETY'S DEVELOPMENT //Academicia Globe: Inderscience Research. –2021. – T. 2. – №. 03. – C. 1-2

[3] Maktabgacha pedagogika [Matn] darslik / F.R.Qodirova - Xalqaro pedagogika Akademiyasining akademigi, professor, p.f.d., Sh.Q-Toshpulatova - dotsent, N.M.Kayumova - dotsent, M.NA’zamova- Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2019. - 688 b

O'yinning syujeti - bir-biriga hayotiy aloqador bo'lgan qator voqea- hodisalar yig'indisidir. Rol syujetli-rolli o'yinning asosiy zanjiri hisoblanadi. O'yin bolada qanoatlanish, xursandchilik hissini paydo qiladi, shuning uchun bolani qiziqtirib, unda yaxshi kayfiyat uyg'otadi, bola organizmidagi hayotiy faoliyatni yaxshilaydi. Bola o'ynayotganda har xil harakatlar qiladi: yuguradi, sakraydi, tor joydan, ingichka taxta ustidan o'tadi, engashadi, yuqoriga tirmashib chiqadi va hokazo. Bu harakatlarning hammasini bola bemalol, o'z xohishi bilan bajaradi, natijada bolaning muskullari pishiydi, u harakatni yengilroq, chaqqonroq bajaradigan bo'lib qoladi. Bolaning aqliy tomondan rivojlanishi uchun ham o'yin katta ahamiyatga ega. O'yin natijasida bolaning bilimi kengayib boradi. Roll! o'yinlar bola kuzatuvchanligini, qiziquvchanligini, bilish doirasini rivojlantiradi, boyitadi. O'yinda bola o'z oldiga maqsad qo'yadi, bu boladan aql, idrok ishlatishni talab qiladi, topag'onlikka o'rgatadi. O'yin jarayonida juda ko'p gaplashishga, tortishishga, bahslashishga, aytib berishga to'g'ri keladi. Bolalar o'zi yasayotgan narsalarini yaxshiroq yasash, qurish uchun juda ko'p o'ylab, fikrlashishlariga to'g'ri keladi. Bular hammasi bola tafakkuri va xayolining rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir. Bola o'z o'yinida borliqni aks ettirib, olgan rolining mazmuni bilan bog'liq bo'lgan u yoki bu hissiyotni boshdan kechiradi. Masalan, Dilnoza ona-bola o'yinida ona rolini o'ynayotib, bolalarini ovqatlantiradi, kiyintiradi, ular bilan yaxshi munosabatda bo'lib erkalaydi, ular bilan gaplashadi, kitoblar o'qib beradi. Bu o'yin bolada muloyimlilik, g'amxo'rlik, e'tiborlilik kabi yaxshi hislarni uyg'otadi[4].

Syujetli-rolli o'yinlarda tarbiyachi yetakchi rol o·ynaydi. Tarbiyachi bolalarning qiziqishlarini diqqat bilan kuzatib, ularning ijobiy tomonlarini rivojlantirish uchun sharoit yaratishi va bolalami kerakli yo'nalishda tarbiyalab borishi lozim. Tarbiyachi syujetli-rolli o'yinlarga rahbarlik qilishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratishi lozim:

1) bolalar o'yiniga rahbarlik qilish uehun ularning o'yinini bilish va har doim kuzatib borishi lozim:

2) tarbiyachi bolalarning o'yin davomidagi muloqotlari. xatti-harakatlarini muntazam kuzatib, tinglab borishi lozim. Bu tarbiyachiga bolalarning qiziqishlari, xohish-istakIarini bilib olib, ularni to'g'ri yo'lga solish. ijobiy xususiyatlarini yanada rivojlantirish imkonini beradi:

3) syujetli-rolli o'yinlarni o'ynash uchun ma'lum joy ajratish lozim:

4) o'yin jarayonida kerak bo'ladigan o'yinchoqlarni bolalar mustaqil o'zlari yasashlari uchun ularga kichkina yog'och bo'laklari. mix, loy. qog'oz, karton, bo'yoq va kerakli asboblar – bolg'acha. qo'l arra. qaychi. pichoq kabilarni berish kerak. Biroq o'yinchoqlar yasash ustida ishlash faqat tarbiyachining rahbarligi ostida bajarilishi lozim;

5) o'yin mavzusini tanlashga yordam berish bolalami o'ynashga o'rgatish usullaridan biridir. Tarbiyachi balalarning rolli o'yinlari mavzusini boyitibgina qolmay, balki uning syujetini, mazmunini boyitish to'g'risida ham o'ylashi kerak;

[4] Maktabgacha pedagogika [Matn] darslik / F.R.Qodirova - Xalqaro pedagogika Akademiyasining akademigi, professor, p.f.d., Sh.Q-Toshpulatova - dotsent, N.M.Kayumova - dotsent, M.NA'zamova- Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2019. - 688 b

6) tarbiyachi hamma bolalarning o'yinga qatnashishlari ustida g'amxo'rlik qilishi kerak. O'yinda ko'pincha ular rol talashib bir-birlari bilan kelisha olmay qoladilar. Bolalarni bunday kelishmovchiliklarni haqqoniy yechishga o' rgatish lozim[5].

Xulosa qilib aytganda, maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarning nutqiy o‘ziga ishonchini rivojlantirish maktabgacha ta’lim jarayonining muhim vazifalaridan biridir. Chunki bolaning o‘z fikrini erkin bayon qilishi, atrofdagilar bilan bemalol muloqotga kirishishi, savollarga mustaqil javob berishi va o‘z qarashlarini ifodalashi uning keyingi ta’lim faoliyatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu davrda bolalarda nutqiy faollikni oshirish, tortinchoqlikni kamaytirish va o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashga alohida e’tibor qaratish lozim. Syujetli-rolli o‘yinlar ushbu maqsadlarga erishishda samarali pedagogik vositalardan biri hisoblanadi. Bunday o‘yinlar davomida bolalar turli kasb va hayotiy vaziyatlarni tasvirlaydi, muayyan rollarni bajaradi, o‘zaro suhbat quradi hamda mustaqil ravishda fikr bildirishga harakat qiladi. Masalan, «Shifokor», «Do‘kon», «Oila», «Maktab» kabi o‘yinlar bolalarning kundalik hayotda uchraydigan muloqot vaziyatlarini o‘rganishiga yordam beradi. O‘yin jarayonida bola o‘ziga berilgan rolni bajarish uchun kerakli so‘zlarni tanlaydi, gaplar tuzadi, savol beradi va suhbatdoshining fikriga munosabat bildiradi. Bu esa uning lug‘at boyligi, ravon gapirish qobiliyati va muloqot madaniyatini rivojlantiradi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, tarbiyachi syujetli-rolli o‘yinlarni tashkil etishda har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olishi zarur. Ayniqsa, tengdoshlari oldida gapirishga tortinadigan yoki o‘z fikrini ifodalashda qiynaladigan bolalarga ko‘proq imkoniyat yaratish muhimdir. Bunday bolalarni o‘yinga bosqichma-bosqich jalb etish, ularning kichik yutuqlarini ham e’tirof etish va rag‘batlantirish ijobiy natija beradi. Bolaga xato qilishdan qo‘rqmasdan gapirish, o‘z fikrini erkin bildirish va suhbatda faol ishtirok etish uchun qulay psixologik muhit yaratish lozim.

Demak, syujetli-rolli o‘yinlardan muntazam va maqsadli foydalanish bolalarning nafaqat nutqiy rivojlanishiga, balki mustaqil fikrlashi, ijodkorligi, ijtimoiy faolligi va o‘ziga bo‘lgan ishonchining ortishiga ham xizmat qiladi. Eng muhimi, o‘yin orqali bola o‘zini erkin namoyon etishni, boshqalar bilan hamkorlik qilishni va fikrini tushunarli tarzda yetkazishni o‘rganadi. Shu sababli syujetli-rolli o‘yinlarni maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi mashg‘ulotlar va kundalik faoliyatning ajralmas qismi sifatida qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv maktabga qadam qo‘yayotgan bolalarning muloqotga tayyor, faol, mustaqil va o‘ziga ishongan shaxs bo‘lib shakllanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Meyliyevna B. M. Thedevelopment of cognitive interests in older Preschoolers in the process of getting acquainted With nature //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. –2022. –T. 12. –No. 4. –C. 121-128
2. Ibrokhimjonovna T. N. PERSONAL EDUCATION AS A MAIN BASIS OF SOCIETY'S DEVELOPMENT //Academicia Globe: Inderscience Research. –2021. – T. 2. – №. 03. – C. 1-2

[5] Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika: darslik/Sh. Sodiqova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - Toshkent: «Tafakkur Bo'stoni», 2013 - 288-b

3. Maktabgacha pedagogika [Matn] darslik / F.R.Qodirova -
4. Xalqaro pedagogika Akademiyasining akademigi, professor, p.f.d., Sh.Q-Toshpulatova - dotsent, N.M.Kayumova - dotsent, M.NA'zamova - Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2019. - 688 b
5. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika: darslik/Sh. Sodiqova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - Toshkent: «Tafakkur Bo'stoni», 2013 - 288-b